

B.MA **Boshqaruv hisobi** **asoslari**

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



B.MA **Бошқарув ҳисоби** **асослари**

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик
учун ўқув-услубий қўлланма





B.MA

Boshqaruv hisobi asoslari

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik uchun
o'quv-uslubiy qo'llanma



Mundarija

I. Umumiy qoidalar	2
II. Dasturning maqsadi va uning asosiy bo'limlari	6
III. Imtihon formati	7
IV. Batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari	8

B.MA Boshqaruv hisobi asoslari

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

I. Umumiy qoidalar

O'zbekiston sertifikatlangan moliya mutaxassislari uyushmasi (ACFP) CFS – Certified Finance Specialist bazaviy malakasi doirasida B.MA Boshqaruv hisobi asoslari imtihoniga tayyorgarlik dasturini ishlab chiqdi.

CFS malakasi tuzilishi


CFS bazaviy malakasini olish uchun nomzod, B.MA Boshqaruv hisobi asoslaridan tashqari, quyidagi imtihonlarni topshirishi kerak:

- B.FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslari.
- B.FM Moliyani boshqarish asoslari.
- B.AU Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlar asoslari.
- B.TX Soliq solish asoslari.
- B.OO Tashkilot va uning faoliyati.
- B.LW Huquq asoslari.
- B.PA Amaliy buxgalteriya asoslari.

Shuningdek, «Axloq va professional xulq asoslari» (B.EP) kursidan o'tish zarur.



Certified
Finance
Specialist



ACFP malaka darajalari tizimi

ACFP malakalari to'rtta izchil daraja bo'yicha turkumlangan:

- A darajasi (boshlang'ich)
- B darajasi (bazaviy)
- C darajasi (professional)
- D darajasi (ilg'or)




O'qishni bilim va ko'nikmalaringizga muvofiq keladigan darajadan boshlash tavsiya etiladi. A darajasidan boshlash majburiy talab emas. Mos keladigan darajani tanlash joriy malaka va professional tajribani mustaqil o'zi baholashga asoslanishi kerak.

B.MANing ACFP tizimidagi o'rni

B.MA imtihoni boshqaruv hisobini bosqichma-bosqich o'rganishning bazaviy (ikkinchi) pog'onasi hisoblanadi va quyidagicha topshirilishi mumkin:

- CFS malakasi (B darajasi) doirasida mustaqil imtihon sifatida;
- boshqaruv hisobining murakkabroq darajalariga (C.MA Biznes samaradorligi va natijadorligini boshqarish va D.MA Samaradorlik va natijadorlikni boshqarish strategiyasi) o'tishdan oldin zarur bo'lgan pog'ona sifatida;
- oliy moliyaviy ma'lumotga ega bo'lmagan, ACCA va ACFP «Moliya va biznesni boshqarish» xalqaro diplomini olishni xohlovchi shaxslar uchun majburiy imtihon sifatida.



Ta'lim natijalari

B.MA imtihoni nomzodlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- dastlabki ma'lumotlarni olishdan to natijalarni baholashgacha boshqaruv hisobining ish doirasini o'zlashtirish;
- boshqaruv hisobining bazaviy usullarini qo'llashning amaliy ko'nikmalariga ega bo'lish;
- professional va ilg'or darajalarda boshqaruv hisobining murakkabroq jihatlarini o'rganishga tayyorgarlik ko'rish.

Amaliy ahamiyati

Boshqaruv hisobi bo'yicha bazaviy bilim va ko'nikmalar moliya mutaxassisiga quyidagilarni amalga oshirish uchun zarur:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotni shakllantirish;
- xarajatlarni hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilishning bazaviy usullarini qo'llash;
- byudjetlashtirish jarayoni va og'ishlar tahlilida ishtirok etish;
- qisqa muddatli qarorlar uchun «xarajatlar-hajm-foyda» tahlilini o'tkazish;
- bo'linmalar faoliyati natijalarini baholashda ishtirok etish;
- ma'lumotlarni tahlil qilish uchun asosiy statistik usullardan foydalanish.

O'quv yuklamasi

Umuman olganda, B.MA «Boshqaruv hisobi asoslari» imtihoniga tayyorgarlik ko'rish uchun kamida 180 soat talab etiladi:

O'quv faoliyati turi	Akademik soatlar soni
Ma'ruzalar	70
Amaliy mashg'ulotlar	70
Mustaqil ish	40
Jami	180

ASSA akkreditatsiyasi

E'tibor bering!

B.MA Boshqaruv hisobi asoslari imtihoni dasturi ASSA (Association of Chartered Certified Accountants) akkreditatsiyasidan o'tgan. Bu shuni anglatadiki:

- u ASSA «Moliya va biznesni boshqarishga kirish» diplomining MA Boshqaruv hisobi faniga kamida 80 % muvofiq keladi;
- ACFPning uchta imtihoni (B.OO, B.MA va B.FR) muvaffaqiyatli topshirilganda talabaga ASSA IFB imtihoni hisobga olinadi.

II. Dasturning maqsadi va uning asosiy bo'limlari

«Boshqaruv hisobi asoslari» fani bo'yicha imtihonga tayyorgarlik dasturining maqsadi talabalarda dastlabki hisob ma'lumotlarini olishdan to faoliyat natijalarini baholashgacha bo'lgan boshqaruv hisobi ish doirasini to'liq tushunishni shakllantirish, shuningdek talabalar tomonidan bunday doiraning turli bosqichlarida qo'llaniladigan bazaviy usullarni o'zlashtirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun dastur quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan:

1. Boshqaruv hisobi uchun iqtisodiy statistika va makroiqtisodiyot
2. Xarajatlarni hisobga olish va tannarxni baholash usullari
3. Zaxiralarni boshqarish
4. Qisqa muddatli qarorlarni qabul qilish
5. Byudjetlashtirish
6. Og'ishlar tahlili
7. Alohida bo'linmalar faoliyati natijalarini baholash

Bundan tashqari, boshqaruv hisobi usullarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun talabalar zarur matematika ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Ushbu ko'nikmalar oxirgi 8-bo'limga chiqarilgan.

Imtihonni muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng talabalar qarorlar qabul qilish uchun boshqaruv hisobining bazaviy tamoyillari va usullarini qo'llay olishlari kerak.

III. Imtihon formati

«Boshqaruv hisobiga kirish» fani bo'yicha imtihon kompyuterda o'tkaziladi. Imtihon davomiyligi – 2 soat. Imtihonda har qanday materiallardan foydalanish taqiqlanadi.

Imtihon ikki qismdan iborat. A qismi test formatidagi 35 ta savoldan iborat bo'lib, ularning har biri bir xil vaznga ega (2 ball). Shu tariqa, A qismining umumiy vazni 70 ballni tashkil qiladi. A qismidagi savollar imtihon dasturining har qanday bo'limiga taalluqli bo'lishi mumkin.

Imtihonning B qismi har biri 10 balldan bo'lgan 3 ta stsenariydan iborat. Har bir stsenariy test formatidagi savollar guruhi bilan birga beriladi. Shu tariqa, B qismining umumiy vazni 30 ballni tashkil qiladi.

B qismining uchta stsenariysidan birinchisi og'ishlar tahliliga, ikkinchisi – byudjetlashtirishga, uchinchisi esa alohida bo'linmalar faoliyati natijalarini baholashga bag'ishlangan. Stsenariy tarkibidagi alohida savollar 1 dan 3 ballgacha vaznga ega bo'lishi mumkin.

Imtihonda olinishi mumkin bo'lgan eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi. O'tish balli – 50 ball.

IV. Batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari

1-bo'lim. Boshqaruv hisobi uchun iqtisodiy statistika va makroiqtisodiyot

1.1 kichik bo'lim. Populyatsiya, tanlanma va ehtimolliklar

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Ma'lumotlar tahlili nuqtai nazaridan populyatsiya va tanlanmani tushuntirish.
- B. Boshqaruv hisobida ma'lumotlar tahlili uchun tanlanmalarni shakllantirish maqsadlarini tushunish.
- C. Tanlanmalarni tayyorlash tartibini tushuntirish va tanlanmalarning turli xillarini farqlash: tasodifiy, tizimli, stratifikatsiyalangan, klasterli, ko'p bosqichli, kvotalangan.
- D. Ma'lumotlar tahlili uchun qo'yilgan vazifalar va mavjud resurslarga qarab tanlanma turini aniqlash.
- E. Populyatsiya va tanlanmaning standart og'ishini hisoblash va talqin qilish.
- F. Ehtimolliklar asosida kutilayotgan qiymatni hisoblash va talqin qilish hamda qarorlar qabul qilishda ehtimolliklardan foydalanishni tushuntirish.
- G. Tanlanmaning standart xatosini hisoblash va talqin qilish.
- H. Ma'lumotlar tahlili maqsadlari uchun tasodifiy miqdor tushunchasini tushuntirish.
- I. Ma'lumotlarning normal taqsimlanish xususiyatlarini bilish va tarixiy ma'lumotlar asosida normal taqsimlanishga yaqin taqsimlanishlarni aniqlay olish.
- J. Dastlabki ma'lumotlarning normal taqsimlanishi holatida eng ehtimolli qiymat va standart og'ish asosida muayyan moliyaviy va miqdoriy ko'rsatkichlarga erishish ehtimolligini hisoblash.
- K. Tasodifiy miqdorning ishonch intervallarini hisoblash va talqin qilish.
- L. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun gipotezalarni (farazlarni) tekshirishdan foydalanish tartibini tushuntirish.

1.2 kichik bo'lim. Vaqt qatorlari tahlili

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Sotuv hajmini prognoz qilish uchun vaqt qatorlaridan foydalanishni tushuntirish.
- B. Sotish trendidan og'ishlarni tushuntirish va farqlash: mavsumiy, tsiklik, tasodifiy.
- C. Additiv va multiplikativ vaqt qatorlari modelidan foydalanib sotishning prognoz qiymatini hisoblash va trend tenglamalari koeffitsiyentlarini talqin qilish.

1.3 kichik bo'lim. Indekslar

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Inflyatsiyaning yuzaga kelish tabiatini tushuntirish va inflyatsiyadan boshqaruv hisobi funktsiyalarini amalga oshirishda qanday foydalanilishini tushunish.
- B. Narx indekslarini hisoblash, talqin qilish va farqlash: Paashe indeksi, Laspeyres indeksi.
- C. Narx indekslari va narx darajasi qiymatlari asosida berilgan davr uchun narxlar darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash.

2-bo'lim. Xarajatlarni hisobga olish va tannarxni baholash usullari

2.1 kichik bo'lim. Xarajatlar tahlili

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Minimaks usulidan foydalanib, ishlab chiqarish va ishlab chiqarishga oid bo'lmagan xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajratish, shu jumladan birlik uchun o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi, doimiy xarajatlarning pog'onali o'zgarishi, xarid va sotish narxlarining jiddiy o'zgarishi sharoitida hamda minimaks usulining afzalliklari va kamchiliklarini tushuntirish.
- B. Bevosita mehnat xarajatlarning turli shakllarini tushuntirish: kafolatlangan ish haqi (qat'iy belgilangan maosh), mehnatga soatbay haq to'lash, ishbay, individual.
- C. Faollik darajasi oshishi bilan turli xarajatlarning jadvaldagi dinamikasini tushuntirish.
- D. Bevosita va ustama ishlab chiqarish xarajatlariga misollarni bilish va keltirish.

2.2 kichik bo'lim. Tannarxni baholashning asosiy usullari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Xarajatlarni hisobga olishning marjinal usulini tushuntirish va uni ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulot tannarxini hisoblash uchun qo'llash.
- B. To'liq singdirish (taqsimlash) usulini tushuntirish va uni ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulot tannarxini hisoblash uchun qo'llash.
- C. To'liq singdirish (taqsimlash) usulidan foydalanishda doimiy; ustama ishlab chiqarish xarajatlarning yetarli bo'lmagan va ortiqcha singdirilishini (taqsimlanishini) hisoblash va talqin qilish.
- D. Foyda va zaxiralarni marjinal usul va to'liq singdirish (taqsimlash) usuli bo'yicha baholash o'rtasidagi farqni tushuntirish va bir usuldan boshqasiga o'tishda foydaning o'zgarishini hisoblash.
- E. To'liq singdirish (taqsimlash) usulidan foydalanishda kompaniya mahsulotni ortiqcha ishlab chiqarish hisobiga foydani qanday oshirishi mumkinligini tushunish.
- F. Yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi markazlar xarajatlarni ishlab chiqarish bo'linmalariga taqsimlash va qayta taqsimlash, shu jumladan tenglamalar tizimini yechish yordamida.

2.3 kichik bo'lim Faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish (AVS usuli)

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish usulini (AVS usulini) to'liq singdirish (taqsimlash) usulini qo'llash usuli sifatida tushuntirish.
- B. Faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish usulidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash.
- C. An'anaviy to'liq singdirish (taqsimlash) usuliga nisbatan faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish usulining afzalliklari va kamchiliklarini tushuntirish.

2.4 kichik bo'lim. Ishlab chiqarilgan turkum tannarxi usuli

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Turkum tannarxi asosida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash.
- B. Turkum tannarxi asosida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini baholash usulidan foydalaniladigan vaziyatlarni tushuntirish.

2.5 kichik bo'lim. Ishlab chiqarish jarayonlari usuli

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Ishlab chiqarish jarayonlari usuli va ekvivalent birlik tannarxidan foydalanishda fizik hajmlarni, tugallangan va tugallanmagan mahsulot tannarxini hisoblash.
- B. Ekvivalent birlik asosida tannarxni baholash usulidan foydalaniladigan vaziyatlarni tushuntirish.
- C. Ishlab chiqarish jarayonlari usulidan foydalanishda me'yoriy va me'yordan yuqori yo'qotishlarni hisobga olishni tushuntirish.

2.6 kichik bo'lim. Buyurtmalar tannarxini aniqlash usuli

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Buyurtmalar va buyurtmalarni bajarish bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini hisoblash.
- B. Buyurtmalar tannarxini baholash usulidan foydalaniladigan vaziyatlarni tushuntirish.

2.7 kichik bo'lim. Xizmatlar tannarxini aniqlash usuli

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Xizmatlar tannarxini hisoblash.
- B. Xizmatlar tannarxini baholashdan foydalaniladigan vaziyatlarni tushuntirish.

2.8 kichik bo'lim. Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Birgalikdagi xarajatlarni taqsimlashning turli yondashuvlarini qo'llagan holda birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini hisoblash.

3-bo'lim. Zaxiralarni boshqarish

3.1 kichik bo'lim. Zaxiralarni boshqarishning asosiy modellari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Zaxiralarni sotib olish uchun buyurtmalarni joylashtirish xarajatlari va zaxiralarni saqlash xarajatlari summasini minimallashtirish uchun optimal buyurtma miqdori modelini qo'llash va modelning dastlabki ma'lumotlari o'zgarishining zaxiralarni boshqarish bilan bog'liq ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash.
- B. Buyurtmalarni joylashtirish xarajatlari va zaxiralarni saqlash xarajatlari qanday xarajat turlaridan iborat ekanligini bilish.
- C. Optimal buyurtma miqdori modelini qo'llash murakkab bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni tushuntirish.
- D. Bufer zaxiralarini ta'minlash va zaxiralar yetishmasligi variantini istisno qilish uchun foydalaniladigan qo'shimcha buyurtma darajasini aniqlash.
- E. Yetkazib beruvchi muayyan buyurtma miqdori uchun chegirma taqdim etgan holatda optimal buyurtma miqdori modelini qo'llashning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini baholash.

3.2 kichik bo'lim. «Aniq muddatda» zaxiralarni boshqarish falsafasi

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. «Aniq muddatda» zaxiralarni boshqarish tizimini, uning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntirish.

4-bo'lim. Qisqa muddatli qarorlarni qabul qilish

4.1 kichik bo'lim. Relevant xarajatlar tamoyili

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Relevant xarajatlar tamoyilini tushuntirish va qaysi xarajatlar relevant ekanligini aniqlash.
- B. Muqobil xarajatlarni tushuntirish va aniq qaror uchun muqobil xarajatlarni aniqlash.
- C. Bir martalik mijozlar buyurtmalarini amalga oshirish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish uchun relevant xarajatlar tamoyilini qo'llash, ularni bajarish uchun, shu jumladan, asosiy vositalar, materiallar, mehnat soatlaridan foydalaniladi.
- D. Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'shimcha ishlov berish to'g'risida qarorlar qabul qilish uchun relevant xarajatlar tamoyilini qo'llash.

4.2 kichik bo'lim. «Xarajatlar-hajm-foyda» tahlili

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. «Xarajatlar-hajm-foyda» tahlilining vazifasini tushuntirish.
- B. Zarar ko'rmaslik nuqtasida tushumni miqdor va pul ifodasida hisoblash va talqin qilish.
- C. Foydaning talab qilingan darajasiga erishish uchun zarur bo'lgan tushumni miqdor va pul ifodasida hisoblash.
- D. Alohida mahsulot bo'yicha marjinal foydaning tushumga nisbatini hisoblash.
- E. «Xarajatlar-hajm-foyda» tahlilidan foydalanish murakkab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni tushuntirish.
- F. Foydaning realizatsiya qilish narxi, realizatsiya qilish hajmi, birlik uchun o'zgaruvchan xarajatlar, doimiy xarajatlarning mustaqil o'zgarishlariga sezuvchanlik ko'rsatkichlarini hisoblash va talqin qilish.

5-bo'lim. Byudjetlashtirish

5.1 kichik bo'lim. Byudjetlar turlari va vazifalari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Byudjet jarayoni va byudjetlarning tashkilot uchun asosiy funktsiyalarini tushuntirish.
- B. Byudjetlarni tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan me'yorlarni shakllantirish tartibi va zaruriyatini tushuntirish.
- C. Funktsional byudjetlar va master-byudjetlarni farqlash.
- D. Funktsional byudjetlarni tayyorlashning standart tartibini tushuntirish.
- E. Funktsional byudjetlarni tayyorlash: sotish byudjeti, ishlab chiqarish byudjeti, zaxiralardan foydalanish byudjeti, zaxiralar xarid qilish byudjeti, mehnatga haq to'lash byudjeti.
- F. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi byudjet hisobotini tayyorlash.
- G. Prognoz qilinayotgan sotishlar, narxlar, zaxiralarning talab qilinadigan qoldiqlari va daromadlar va xarajatlar bo'yicha to'lov shartlari haqidagi axborot asosida pul mablag'lari harakati to'g'risidagi byudjet hisobotini tayyorlash.
- H. Nazorat maqsadlari uchun qat'iy belgilangan byudjetlardan foydalanishning kamchiliklarini tushuntirish.

5.2 kichik bo'lim. Moslashuvchan byudjet

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Moslashuvchan byudjetni va undan rejalashtirish va nazorat instrumenti sifatida foydalanilishini tushuntirish.
- B. Qat'iy belgilangan byudjet va davr uchun haqiqiy natijalar asosida moslashuvchan byudjet bo'yicha foydani hisoblash.
- C. Doimiy xarajatlarning pog'onali oshishida moslashuvchan byudjet bo'yicha foydani hisoblash.
- D. Haqiqiy daromadlar va xarajatlar hamda moslashuvchan byudjet bo'yicha daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi og'ishlarni hisoblash va talqin qilish.

6-bo'lim. Og'ishlar tahlili

6.1 kichik bo'lim. Og'ishlar tahlilining roli

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Byudjet va haqiqiy foyda o'rtasidagi og'ishlar tahlili byudjet nazoratining aniqlovchi shakli ekanligini tushunish.

6.2 kichik bo'lim. Xarajatlar bo'yicha og'ishlar

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. O'zgaruvchan va doimiy xarajatlar bo'yicha umumiy og'ishlarni, o'zgaruvchan ustama xarajatlarning xarajatlar bo'yicha og'ishlari, o'zgaruvchan ustama xarajatlarning samaradorlik bo'yicha og'ishlari, doimiy ustama xarajatlarning xarajatlar bo'yicha og'ishlari va doimiy ustama xarajatlarning hajm bo'yicha og'ishlarini hisoblash va talqin qilish.
- B. Doimiy ustama xarajatlarning hajm bo'yicha og'ishlari tarkibiy qismlarini hisoblash va talqin qilish: doimiy ustama xarajatlarning quvvat bo'yicha og'ishi va doimiy ustama xarajatlarning samaradorlik bo'yicha og'ishi.
- C. Bevosita mehnat xarajatlarining bo'sh turib qolish vaqti bo'yicha og'ishini hisoblash va talqin qilish.
- D. Xarajatlarni hisobga olishning marjinal usuli va to'liq singdirish usulidan foydalanish ba'zi og'ishlarni hisoblashga qay tarzda ta'sir qilishini tushuntirish.

6.3 kichik bo'lim. Operatsion hisobotlar

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. «Aniq muddatda» tizimidan foydalanishda turli og'ishlarni hisoblashni o'z ichiga olgan byudjet va haqiqiy natijalar o'rtasidagi solishtiruv to'g'risidagi operatsion hisobotlarni tayyorlash: to'liq singdirish (taqsimlash) usulini qo'llashda byudjet va haqiqiy foydani solishtirish hisoboti; marjinal usulni qo'llashda byudjet va haqiqiy foydani solishtirish hisoboti; byudjet va haqiqiy marjinal foydani solishtirish hisoboti; byudjet va haqiqiy xarajatlarni solishtirish hisoboti; muayyan kompaniyaning operatsion hisobotlari natijalarini talqin qilish.
- B. Operatsion hisobotlarda mavjud bo'lgan og'ishlarning ehtimoliy sabablarini tushuntirish va tushunish.

7-bo'lim. Alohida bo'linmalar faoliyati natijalarini baholash

7.1 kichik bo'lim. Faoliyat natijalarini baholash asoslari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Tashkilotning missiyasini va uning faoliyat natijalarini baholashdagi rolini tushuntirish.
- B. Faoliyat natijalarini baholash tashkilotni javobgarlik markazlariga bo'lishga asoslanganligini tushunish.

- C. Javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish tushunchasini tushuntirish.
- D. Javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish ma'nosida xarajatlar markazlari, tushum markazlari, foyda markazlari va investitsiya markazlarini tushuntirish va farqlash.
- E. Javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish rasmiy tashkiliy tuzilmaga emas, balki javobgarlik markazlarining aniq natijalar va ko'rsatkichlarni nazorat qilishiga asoslanishi kerakligini tushunish.

7.2 kichik bo'lim. Faoliyat natijalarini baholashning moliyaviy ko'rsatkichlari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Investitsiyalar rentabelligi (ROI) va qoldiq foyda (RI) ko'rsatkichlarini hisoblash va talqin qilish hamda faoliyat natijalarini baholash uchun ularning taqqoslama afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- B. ROI komponentlarini hisoblash va talqin qilish: aktivlarning aylanuvchanligi va operatsion foyda marjasi.
- C. Faoliyat natijalarini baholash uchun faqat moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntirish.
- D. Muayyan tashkilotning javobgarlik markazlari natijalarini ROI va RI bo'yicha solishtirish va muhokama qilish.

7.3 kichik bo'lim. Faoliyat natijalarini baholashning nomoliyaviy ko'rsatkichlari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Tashkilotning barqaror rivojlanishi uchun nomoliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanishning muhimligini tushuntirish.
- B. Muayyan tashkilotning faoliyat natijalarini baholash uchun nomoliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash va bir kompaniyaning ish natijalarini nomoliyaviy ko'rsatkichlar majmuasi bo'yicha oldingi davr bilan solishtirish.
- C. Turli kompaniyalarning ish natijalarini nomoliyaviy ko'rsatkichlar majmuasi bo'yicha solishtirish.
- D. Balanslangan ko'rsatkichlar tizimini maqsadlarni qo'yish va alohida bo'linmalar faoliyati natijalarini baholash vositasi sifatida tushuntirish.
- E. Muayyan tashkilot faoliyati natijalarini baholash uchun eng o'rinli ko'rsatkichlarni aniqlash va ushbu ko'rsatkichlarni to'rtta istiqbolli balanslangan ko'rsatkichlar tizimidan biriga tasniflash.

7.4 kichik bo'lim. Mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Tashkilotda mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblash va talqin qilish: ishchi kuchi unumdorligi indeksi, ishchi kuchidan foydalanish indeksi, ishlab chiqarish hajmi (faollik) indeksi, ishchi kuchi qo'nimsizligi koeffitsiyenti.

8-bo'lim. Matematika ko'nikmalari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Kvadrat ildizlarni chiqara olish.
 - B. Chiziqli tenglamalarni yechish va «balanslovchi» qiymatni topish.
-



В.МА

Бошқарув ҳисоби асослари

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик учун
ўқув-услубий қўлланма



Мундарижа

I. Умумий қоидалар.....	2
II. Дастурнинг мақсади ва унинг асосий бўлимлари	6
III. Имтиҳон формати.....	7
IV. Батафсил ўқув режаси ва ўқув мақсадлари	8

В.МА Бошқарув ҳисоби асослари

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик учун ўқув-ўслубий қўлланма

I. Умумий қоидалар

Ўзбекистон сертифициланган молия мутахассислари уюшмаси (ACFP) CFS – Certified Finance Specialist базавий малакаси доирасида В.МА Бошқарув ҳисоби асослари имтиҳонига тайёргарлик дастурини ишлаб чиқди.

CFS малакаси тузилиши

CFS базавий малакасини олиш учун номзод, В.МА Бошқарув ҳисоби асосларидан ташқари, қуйидаги имтиҳонларни топшириши керак:

- В.FR Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари.
- В.FM Молияни бошқариш асослари.
- В.AU Аудит ва ишончни таъминлайдиган топшириқлар асослари.
- В.TX Солиқ солиш асослари.
- В.OO Ташкилот ва унинг фаолияти.
- В.LW Ҳуқуқ асослари.
- В.PA Амалий бухгалтерия асослари.

Шунингдек, «Ахлоқ ва профессионал ҳуқ асослари» (В.ЕР) курсидан ўтиш зарур.



Certified
Finance
Specialist



ACFP малака даражалари тизими

ACFP малакалари тўртта изчил даража бўйича туркумланган:

- А даражаси (бошланғич)
- В даражаси (базавий)
- С даражаси (профессионал)
- D даражаси (илғор)




Ўқишни билим ва кўникмаларингизга мувофиқ келадиган даражадан бошлаш тавсия этилади. А даражасидан бошлаш мажбурий талаб эмас. Мос келадиган даражани танлаш жорий малака ва профессионал тажрибани мустақил ўзи баҳолашга асосланиши керак.

В.Манинг ACFP тизимидаги ўрни

В.МА имтиҳони бошқарув ҳисобини босқичма-босқич ўрганишнинг базавий (иккинчи) поғонаси ҳисобланади ва қуйидагича топширилиши мумкин:

- CFS малакаси (В даражаси) доирасида мустақил имтиҳон сифатида;
- бошқарув ҳисобининг мураккаброқ даражаларига (С.МА Бизнес самарадорлиги ва натижадорлигини бошқариш ва D.МА Самарадорлик ва натижадорликни бошқариш стратегияси) ўтишдан олдин зарур бўлган поғона сифатида;
- олий молиявий маълумотга эга бўлмаган, АССА ва ACFP «Молия ва бизнесни бошқариш» халқаро дипломини олишни хоҳловчи шахслар учун мажбурий имтиҳон сифатида.



Таълим натижалари

В.МА имтиҳони номзодларга қуйидаги имкониятларни беради:

- дастлабки маълумотларни олишдан то натижаларни баҳолашгача бошқарув ҳисобининг иш доирасини ўзлаштириш;
- бошқарув ҳисобининг базавий усулларини қўллашнинг амалий кўникмаларига эга бўлиш;
- профессионал ва илғор даражаларда бошқарув ҳисобининг мураккаброқ жиҳатларини ўрганишга тайёргарлик кўриш;

Амалий аҳамияти

Бошқарув ҳисоби бўйича базавий билим ва кўникмалар молия мутахассисига қуйидагиларни амалга ошириш учун зарур:

- бошқарув қарорларини қабул қилиш учун ахборотни шакллантириш;
- харажатларни ҳисобга олиш ва таннархни калькуляция қилишнинг базавий усулларини қўллаш;
- бюджетлаштириш жараёни ва оғишлар таҳлилида иштирок этиш;
- қисқа муддатли қарорлар учун «харажатлар-ҳажм-фойда» таҳлилини ўтказиш;
- бўлинмалар фаолияти натижаларини баҳолашда иштирок этиш;
- маълумотларни таҳлил қилиш учун асосий статистик усуллардан фойдаланиш.

Ўқув юкламаси

Умуман олганда, В.МА «Бошқарув ҳисоби асослари» имтиҳонига тайёргарлик кўриш учун камида 180 соат талаб этилади:

Ўқув фаолияти тури	Академик соатлар сони
Маърузалар	70
Амалий машғулотлар	70
Мустақил иш	40
Жами	180

ACCA аккредитацияси

Эътибор беринг!

В.МА Бошқарув ҳисоби асослари имтиҳони дастури ACCA (Association of Chartered Certified Accountants) аккредитациясидан ўтган. Бу шуни англатадики:

- у ACCA «Молия ва бизнесни бошқаришга кириш» дипломининг МА Бошқарув ҳисоби фанига камида 80 % мувофиқ келади;
- ACFPнинг учта имтиҳони (В.ОО, В.МА ва В.ФР) муваффақиятли топширилганда талабага ACCA IFB имтиҳони ҳисобга олинади.

II. Дастурнинг мақсади ва унинг асосий бўлимлари

«Бошқарув ҳисоби асослари» фани бўйича имтиҳонга тайёргарлик дастурининг мақсади талабаларда дастлабки ҳисоб маълумотларини олишдан то фаолият натижаларини баҳолашгача бўлган бошқарув ҳисоби иш доирасини тўлиқ тушунишни шакллантириш, шунингдек талабалар томонидан бундай доиранинг турли босқичларида қўлланиладиган базавий усулларни ўзлаштиришдир.

Ушбу мақсадга эришиш учун дастур қуйидаги бўлимларни ўз ичига олган:

1. Бошқарув ҳисоби учун иқтисодий статистика ва макроиқтисодиёт
2. Харажатларни ҳисобга олиш ва таннархни баҳолаш усуллари
3. Захираларни бошқариш
4. Қисқа муддатли қарорларни қабул қилиш
5. Бюджетлаштириш
6. Оғишлар таҳлили
7. Алоҳида бўлинмалар фаолияти натижаларини баҳолаш

Бундан ташқари, бошқарув ҳисоби усулларини муваффақиятли қўллаш учун талабалар зарур математика кўникмаларига эга бўлишлари керак. Ушбу кўникмалар охириги 8-бўлимга чиқарилган.

Имтиҳонни муваффақиятли топширгандан сўнг талабалар қарорлар қабул қилиш учун бошқарув ҳисобининг базавий тамойиллари ва усулларини қўллай олишлари керак.

III. Имтиҳон формати

«Бошқарув ҳисобига кириш» фани бўйича имтиҳон компьютерда ўтказилади. Имтиҳон давомийлиги – 2 соат. Имтиҳонда ҳар қандай материаллардан фойдаланиш тақиқланади.

Имтиҳон икки қисмдан иборат. А қисми тест форматидаги 35 та саволдан иборат бўлиб, уларнинг ҳар бири бир хил вазнга эга (2 балл). Шу тариқа, А қисмининг умумий вазни 70 баллни ташкил қилади. А қисмидаги саволлар имтиҳон дастурининг ҳар қандай бўлимига тааллуқли бўлиши мумкин.

Имтиҳоннинг В қисми ҳар бири 10 баллдан бўлган 3 та сценарийдан иборат. Ҳар бир сценарий тест форматидаги саволлар гуруҳи билан бирга берилади. Шу тариқа, В қисмининг умумий вазни 30 баллни ташкил қилади.

В қисмининг учта сценарийсидан биринчиси оғишлар таҳлилига, иккинчиси – бюджетлаштиришга, учинчиси эса алоҳида бўлинмалар фаолияти натижаларини баҳолашга бағишланган. Сценарий таркибидаги алоҳида саволлар 1 дан 3 баллгача вазнга эга бўлиши мумкин.

Имтиҳонда олиниши мумкин бўлган энг юқори натижа 100 баллни ташкил этади. Ўтиш балли – 50 балл.

IV. Батафсил ўқув режаси ва ўқув мақсадлари

1-бўлим. Бошқарув ҳисоби учун иқтисодий статистика ва макроиқтисодиёт

1.1 кичик бўлим. Популяция, танланма ва эҳтимолликлар

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Маълумотлар таҳлили нуқтаи назаридан популяция ва танланмани тушунтириш.
- B. Бошқарув ҳисобида маълумотлар таҳлили учун танланмаларни шакллантириш мақсадларини тушуниш.
- C. Танланмаларни тайёрлаш тартибини тушунтириш ва танланмаларнинг турли хилларини фарқлаш: тасодифий, тизимли, стратификацияланган, кластерли, кўп босқичли, квоталанган.
- D. Маълумотлар таҳлили учун қўйилган вазифалар ва мавжуд ресурсларга қараб танланма турини аниқлаш.
- E. Популяция ва танланманинг стандарт оғишини ҳисоблаш ва талқин қилиш.
- F. Эҳтимолликлар асосида кутилаётган қийматни ҳисоблаш ва талқин қилиш ҳамда қарорлар қабул қилишда эҳтимолликлардан фойдаланишни тушунтириш.
- G. Танланманинг стандарт хатосини ҳисоблаш ва талқин қилиш;
- H. Маълумотлар таҳлили мақсадлари учун тасодифий миқдор тушунчасини тушунтириш.
- I. Маълумотларнинг нормал тақсимланиш хусусиятларини билиш ва тарихий маълумотлар асосида нормал тақсимланишга яқин тақсимланишларни аниқлай олиш.
- J. Дастлабки маълумотларнинг нормал тақсимланиши ҳолатида энг эҳтимолли қиймат ва стандарт оғиш асосида муайян молиявий ва миқдорий кўрсаткичларга эришиш эҳтимоллигини ҳисоблаш.
- K. Тасодифий миқдорнинг ишонч интервалларини ҳисоблаш ва талқин қилиш.
- L. Бошқарув қарорларини қабул қилиш учун гипотезаларни (фаразларни) текширишдан фойдаланиш тартибини тушунтириш.

1.2 кичик бўлим. Вақт қаторлари таҳлили

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Сотув ҳажмини прогноз қилиш учун вақт қаторларидан фойдаланишни тушунтириш.
- B. Сотиш трендидан оғишларни тушунтириш ва фарқлаш: мавсумий, циклик, тасодифий.
- C. Аддитив ва мультипликатив вақт қаторлари моделидан фойдаланиб сотишнинг прогноз қийматини ҳисоблаш ва тренд тенгламалари коэффициентларини талқин қилиш.

1.3 кичик бўлим. Индекслар

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Инфляциянинг юзага келиш табиатини тушунтириш ва инфляциядан бошқарув ҳисоби функцияларини амалга оширишда қандай фойдаланилишини тушуниш.
- B. Нарх индексларини ҳисоблаш, талқин қилиш ва фарқлаш: Пааше индекси, Ласпейрес индекси.
- C. Нарх индекслари ва нарх даражаси қийматлари асосида берилган давр учун нархлар даражасидаги ўзгаришларни аниқлаш.

2-бўлим. Харажатларни ҳисобга олиш ва таннархни баҳолаш усуллари

2.1 кичик бўлим. Харажатлар таҳлили

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Минимакс усулидан фойдаланиб, ишлаб чиқариш ва ишлаб чиқаришга оид бўлмаган харажатларни ўзгарувчан ва доимий харажатларга ажратиш, шу жумладан бирлик учун ўзгарувчан харажатларнинг ўзгариши, доимий харажатларнинг поғонали ўзгариши, харид ва сотиш нархларининг жиддий ўзгариши шароитида ҳамда минимакс усулининг афзалликлари ва камчиликларини тушунтириш.
- B. Бевосита меҳнат харажатларининг турли шакллариини тушунтириш: кафолатланган иш ҳақи (қатъий белгиланган маош), меҳнатга соатбай ҳақ тўлаш, ишбай, индивидуал.
- C. Фаоллик даражаси ошиши билан турли харажатларнинг жадвалдаги динамикасини тушунтириш.
- D. Бевосита ва устама ишлаб чиқариш харажатларига мисолларни билиш ва келтириш.

2.2 кичик бўлим. Таннархни баҳолашнинг асосий усуллари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Харажатларни ҳисобга олишнинг маржинал усулини тушунтириш ва уни ишлаб чиқарилган ва реализация қилинган маҳсулот таннархини ҳисоблаш учун қўллаш.
- B. Тўлиқ сингдириш (тақсимлаш) усулини тушунтириш ва уни ишлаб чиқарилган ва реализация қилинган маҳсулот таннархини ҳисоблаш учун қўллаш.
- C. Тўлиқ сингдириш (тақсимлаш) усулидан фойдаланишда доимий; устама ишлаб чиқариш харажатларининг етарли бўлмаган ва ортиқча сингдирилишини (тақсимланишини) ҳисоблаш ва талқин қилиш.
- D. Фойда ва захираларни маржинал усул ва тўлиқ сингдириш (тақсимлаш) усули бўйича баҳолаш ўртасидаги фарқни тушунтириш ва бир усулдан бошқасига ўтишда фойданинг ўзгаришини ҳисоблаш.
- E. Тўлиқ сингдириш (тақсимлаш) усулидан фойдаланишда компания маҳсулотни ортиқча ишлаб чиқариш ҳисобига фойдани қандай ошириши мумкинлигини тушуниш.
- F. Ёрдамчи ва хизмат кўрсатувчи марказлар харажатларини ишлаб чиқариш бўлинмаларига тақсимлаш ва қайта тақсимлаш, шу жумладан тенгламалар тизимини ечиш ёрдамида.

2.3 кичик бўлим Фаолият турлари бўйича харажатларни ҳисобга олиш (ABC усули)

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Фаолият турлари бўйича харажатларни ҳисобга олиш усулини (ABC усулини) тўлиқ сингдириш (тақсимлаш) усулини қўллаш усули сифатида тушунтириш.
- B. Фаолият турлари бўйича харажатларни ҳисобга олиш усулидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархини ҳисоблаш.
- C. Анъанавий тўлиқ сингдириш (тақсимлаш) усулига нисбатан фаолият турлари бўйича харажатларни ҳисобга олиш усулининг афзалликлари ва камчиликларини тушунтириш.

2.4 кичик бўлим. Ишлаб чиқарилган туркум таннархи усули

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Туркум таннархи асосида ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархини ҳисоблаш.
- B. Туркум таннархи асосида ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархини баҳолаш усулидан фойдаланиладиган вазиятларни тушунтириш.

2.5 кичик бўлим. Ишлаб чиқариш жараёнлари усули

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Ишлаб чиқариш жараёнлари усули ва эквивалент бирлик таннархидан фойдаланишда физик ҳажмларни, тугалланган ва тугалланмаган маҳсулот таннархини ҳисоблаш.
- B. Эквивалент бирлик асосида таннархни баҳолаш усулидан фойдаланиладиган вазиятларни тушунтириш.
- C. Ишлаб чиқариш жараёнлари усулидан фойдаланишда меъёрий ва меъёрдан юқори йўқотишларни ҳисобга олишни тушунтириш.

2.6 кичик бўлим. Буюртмалар таннархини аниқлаш усули

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Буюртмалар ва буюртмаларни бажариш бўйича тугалланмаган ишлаб чиқариш таннархини ҳисоблаш.
- B. Буюртмалар таннархини баҳолаш усулидан фойдаланиладиган вазиятларни тушунтириш.

2.7 кичик бўлим. Хизматлар таннархини аниқлаш усули

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Хизматлар таннархини ҳисоблаш.
- B. Хизматлар таннархини баҳолашдан фойдаланиладиган вазиятларни тушунтириш.

2.8 кичик бўлим. Биргаликда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Биргаликдаги харажатларни тақсимлашнинг турли ёндашувларини қўллаган ҳолда биргаликда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар таннархини ҳисоблаш.

3-бўлим. Захираларни бошқариш

3.1 кичик бўлим. Захираларни бошқаришнинг асосий моделлари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Захираларни сотиб олиш учун буюртмаларни жойлаштириш харажатлари ва захираларни сақлаш харажатлари суммасини минималлаштириш учун оптимал буюртма миқдори моделини қўллаш ва моделнинг дастлабки маълумотлари ўзгаришининг захираларни бошқариш билан боғлиқ кўрсаткичларга таъсирини аниқлаш;
- B. Буюртмаларни жойлаштириш харажатлари ва захираларни сақлаш харажатлари қандай харажат турларидан иборат эканлигини билиш;
- C. Оптимал буюртма миқдори моделини қўллаш мураккаб бўлиши мумкин бўлган вазиятларни тушунтириш;
- D. Буфер захираларини таъминлаш ва захиралар етишмаслиги вариантини истисно қилиш учун фойдаланиладиган қўшимча буюртма даражасини аниқлаш;
- E. Етказиб берувчи муайян буюртма миқдори учун чегирма тақдим этган ҳолатда оптимал буюртма миқдори моделини қўллашнинг иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқлигини баҳолаш.

3.2 кичик бўлим. «Аниқ муддатда» захираларни бошқариш фалсафаси

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. «Аниқ муддатда» захираларни бошқариш тизимини, унинг афзалликлари ва камчиликларини тушунтириш.

4-бўлим. Қисқа муддатли қарорларни қабул қилиш

4.1 кичик бўлим. Релевант харажатлар тамойили

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Релевант харажатлар тамойилини тушунтириш ва қайси харажатлар релевант эканлигини аниқлаш.
- B. Муқобил харажатларни тушунтириш ва аниқ қарор учун муқобил харажатларни аниқлаш.
- C. Бир марталик мижозлар буюртмаларини амалга ошириш билан боғлиқ қарорларни қабул қилиш учун релевант харажатлар тамойилини қўллаш, уларни бажариш учун, шу жумладан, асосий воситалар, материаллар, меҳнат соатларидан фойдаланилади.
- D. Биргаликда ишлаб чиқарилган маҳсулотларга қўшимча ишлов бериш тўғрисида қарорлар қабул қилиш учун релевант харажатлар тамойилини қўллаш.

4.2 кичик бўлим. «Харажатлар-ҳажм-фойда» таҳлили

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. «Харажатлар-ҳажм-фойда» таҳлилининг вазифасини тушунтириш.
- B. Зарар кўрмаслик нуқтасида тушумни миқдор ва пул ифодасида ҳисоблаш ва талқин қилиш.
- C. Фойданинг талаб қилинган даражасига эришиш учун зарур бўлган тушумни миқдор ва пул ифодасида ҳисоблаш.
- D. Алоҳида маҳсулот бўйича маржинал фойданинг тушумга нисбатини ҳисоблаш.
- E. «Харажатлар-ҳажм-фойда» таҳлилидан фойдаланиш мураккаб бўлиши мумкин бўлган ҳолатларни тушунтириш.
- F. Фойданинг реализация қилиш нархи, реализация қилиш ҳажми, бирлик учун ўзгарувчан харажатлар, доимий харажатларнинг мустақил ўзгаришларига сезувчанлик кўрсаткичларини ҳисоблаш ва талқин қилиш.

5-бўлим. Бюджетлаштириш

5.1 кичик бўлим. Бюджетлар турлари ва вазифалари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Бюджет жараёни ва бюджетларнинг ташкилот учун асосий функцияларини тушунтириш.
- B. Бюджетларни тайёрлаш учун асос бўлиб хизмат қиладиган меъёрларни шакллантириш тартиби ва заруриятини тушунтириш.
- C. Функционал бюджетлар ва мастер-бюджетларни фарқлаш.
- D. Функционал бюджетларни тайёрлашнинг стандарт тартибини тушунтириш.
- E. Функционал бюджетларни тайёрлаш: сотиш бюджети, ишлаб чиқариш бюджети, захиралардан фойдаланиш бюджети, захиралар харид қилиш бюджети, меҳнатга ҳақ тўлаш бюджети.
- F. Молиявий натижалар тўғрисидаги бюджет ҳисоботини тайёрлаш.
- G. Прогноз қилинаётган сотишлар, нархлар, захираларнинг талаб қилинадиган қолдиқлари ва даромадлар ва харажатлар бўйича тўлов шартлари ҳақидаги ахборот асосида пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги бюджет ҳисоботини тайёрлаш.
- H. Назорат мақсадлари учун қатъий белгиланган бюджетлардан фойдаланишнинг камчиликларини тушунтириш.

5.2 кичик бўлим. Мослашувчан бюджет

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Мослашувчан бюджетни ва ундан режалаштириш ва назорат инструменти сифатида фойдаланилишини тушунтириш.
- B. Қатъий белгиланган бюджет ва давр учун ҳақиқий натижалар асосида мослашувчан бюджет бўйича фойдани ҳисоблаш.

- C. Доимий харажатларнинг поғонали ошишида мослашувчан бюджет бўйича фойдани ҳисоблаш.
- D. Ҳақиқий даромадлар ва харажатлар ҳамда мослашувчан бюджет бўйича даромадлар ва харажатлар ўртасидаги оғишларни ҳисоблаш ва талқин қилиш.

6-бўлим. Оғишлар таҳлили

6.1 кичик бўлим. Оғишлар таҳлилининг роли

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Бюджет ва ҳақиқий фойда ўртасидаги оғишлар таҳлили бюджет назоратининг аниқловчи шакли эканлигини тушуниш.

6.2 кичик бўлим. Харажатлар бўйича оғишлар

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Ўзгарувчан ва доимий харажатлар бўйича умумий оғишларни, ўзгарувчан устама харажатларнинг харажатлар бўйича оғишлари, ўзгарувчан устама харажатларнинг самарадорлик бўйича оғишлари, доимий устама харажатларнинг харажатлар бўйича оғишлари ва доимий устама харажатларнинг ҳажм бўйича оғишларини ҳисоблаш ва талқин қилиш.
- B. Доимий устама харажатларнинг ҳажм бўйича оғишлари таркибий қисмларини ҳисоблаш ва талқин қилиш: доимий устама харажатларнинг қувват бўйича оғиши ва доимий устама харажатларнинг самарадорлик бўйича оғиши.
- C. Бевосита меҳнат харажатларининг бўш туриб қолиш вақти бўйича оғишини ҳисоблаш ва талқин қилиш.
- D. Харажатларни ҳисобга олишнинг маржинал усули ва тўлиқ сингдириш усулидан фойдаланиш баъзи оғишларни ҳисоблашга қай тарзда таъсир қилишини тушунтириш.

6.3 кичик бўлим. Операцион ҳисоботлар

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. «Аниқ муддатда» тизимидан фойдаланишда турли оғишларни ҳисоблашни ўз ичига олган бюджет ва ҳақиқий натижалар ўртасидаги солиштирув тўғрисидаги операцион ҳисоботларни тайёрлаш: тўлиқ сингдириш (тақсимлаш) усулини қўллашда бюджет ва ҳақиқий фойдани солиштириш ҳисоботи; маржинал усулни қўллашда бюджет ва ҳақиқий фойдани солиштириш ҳисоботи; бюджет ва ҳақиқий маржинал фойдани солиштириш ҳисоботи; бюджет ва ҳақиқий харажатларни солиштириш ҳисоботи; муайян компаниянинг операцион ҳисоботлари натижаларини талқин қилиш.
- B. Операцион ҳисоботларда мавжуд бўлган оғишларнинг эҳтимолий сабабларини тушунтириш ва тушуниш.

7-бўлим. Алоҳида бўлинмалар фаолияти натижаларини баҳолаш

7.1 кичик бўлим. Фаолият натижаларини баҳолаш асослари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Ташкилотнинг миссиясини ва унинг фаолият натижаларини баҳолашдаги ролини тушунтириш.
- B. Фаолият натижаларини баҳолаш ташкилотни жавобгарлик марказларига бўлишга асосланганлигини тушуниш.
- C. Жавобгарлик марказлари бўйича ҳисобга олиш тушунчасини тушунтириш.
- D. Жавобгарлик марказлари бўйича ҳисобга олиш маъносида харажатлар марказлари, тушум марказлари, фойда марказлари ва инвестиция марказларини тушунтириш ва фарқлаш.
- E. Жавобгарлик марказлари бўйича ҳисобга олиш расмий ташкилий тузилмага эмас, балки жавобгарлик марказларининг аниқ натижалар ва кўрсаткичларни назорат қилишига асосланиши кераклигини тушуниш.

7.2 кичик бўлим. Фаолият натижаларини баҳолашнинг молиявий кўрсаткичлари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Инвестициялар рентабеллиги (ROI) ва қолдиқ фойда (RI) кўрсаткичларини ҳисоблаш ва талқин қилиш ҳамда фаолият натижаларини баҳолаш учун уларнинг таққослама афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.
- B. ROI компонентларини ҳисоблаш ва талқин қилиш: активларнинг айланувчанлиги ва операцион фойда маржаси.
- C. Фаолият натижаларини баҳолаш учун фақат молиявий кўрсаткичлардан фойдаланишнинг афзалликлари ва камчиликларини тушунтириш.
- D. Муайян ташкилотнинг жавобгарлик марказлари натижаларини ROI ва RI бўйича солиштириш ва муҳокама қилиш.

7.3 кичик бўлим. Фаолият натижаларини баҳолашнинг номолиявий кўрсаткичлари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Ташкилотнинг барқарор ривожланиши учун номолиявий кўрсаткичлардан фойдаланишнинг муҳимлигини тушунтириш.
- B. Муайян ташкилотнинг фаолият натижаларини баҳолаш учун номолиявий кўрсаткичларни ҳисоблаш ва бир компаниянинг иш натижаларини номолиявий кўрсаткичлар мажмуаси бўйича олдинги давр билан солиштириш.
- C. Турли компанияларнинг иш натижаларини номолиявий кўрсаткичлар мажмуаси бўйича солиштириш.
- D. Балансланган кўрсаткичлар тизимини мақсадларни қўйиш ва алоҳида бўлинмалар фаолияти натижаларини баҳолаш воситаси сифатида тушунтириш.
- E. Муайян ташкилот фаолияти натижаларини баҳолаш учун энг ўринли кўрсаткичларни аниқлаш ва ушбу кўрсаткичларни тўртта истиқболли балансланган кўрсаткичлар тизимидан бирига таснифлаш.

7.4 кичик бўлим. Меҳнат ресурсларидан фойдаланиш кўрсаткичлари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- А. Ташкилотда меҳнат ресурсларидан фойдаланиш кўрсаткичларини ҳисоблаш ва талқин қилиш: ишчи кучи унумдорлиги индекси, ишчи кучидан фойдаланиш индекси, ишлаб чиқариш ҳажми (фаоллик) индекси, ишчи кучи қўнимсизлиги коэффиценти.

8-бўлим. Математика кўникмалари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- А. Квадрат илдизларни чиқара олиш.
- В. Чизиқли тенгламаларни ечиш ва «балансловчи» қийматни топиш.